



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

GLOBAL JARAYONLAR SHAROITIDA IJTIMOYIY FAOLLIKNING TRANSFORMATSION TALQINI

Usnatdinov Azamat

Qoraqalpoq davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va global jarayonlar sharoitida uning transformatsion xususiyatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda globallashuv, axborotlashuv, raqamli kommunikatsiya va madaniy integratsiya jarayonlarining shaxs ijtimoiy faolligining shakllanishi va yuzaga kelishiga ta'siri nazariy jihatdan asoslangan. Ijtimoiy faollik insonning jamiyatga passiv moslashuvi sifatida emas, balki uning ijtimoiy jarayonlarda ongli, maqsadga muvofiq va mas'uliyatli ishtiroki sifatida talqin etiladi. Maqolada klassik va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar qiyosiy tahlil qilinib, global o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy faollikning yangi turlari va ko'rinishlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy faollikni shaxs va jamiyat o'zaro munosabatlarining muhim ko'rsatkichi sifatida tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, global jarayonlar, transformatsiya, shaxs, jamiyat, ijtimoiy falsafa, ijtimoiy ong.

ТРАНСФОРМАЦИОННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ

Уснатдинов Азамат

Каракалпакский государственный университет, преподаватель

Аннотация

В статье с социально-философской точки зрения анализируются сущность понятия социальной активности и её трансформационные особенности в условиях глобальных процессов. Теоретически обосновывается влияние глобализации, информатизации, цифровой коммуникации и культурной интеграции на формирование и развитие социальной активности личности. Социальная активность рассматривается не как пассивная адаптация человека к обществу, а как его осознанное, целенаправленное и ответственное участие в социальных процессах. В работе проводится сравнительный анализ классических и современных социально-философских концепций, а также выявляются новые формы и проявления социальной активности в условиях глобальных изменений. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию социальной активности как важного показателя взаимодействия личности и общества.

Ключевые слова: социальная активность, глобальные процессы, трансформация, личность, общество, социальная философия, общественное сознание.

A TRANSFORMATIONAL INTERPRETATION OF SOCIAL ACTIVITY IN THE CONTEXT OF GLOBAL PROCESSES

Usnatdinov Azamat

Karakalpak State University, Lecturer

Abstract

This article provides a socio-philosophical analysis of the essence of social activity and its transformational characteristics in the context of global processes. The study theoretically substantiates the impact of globalization, informatization, digital communication, and cultural integration on the formation and development of individual social activity. Social activity is interpreted not as a passive adaptation of an individual to society, but as a conscious, purposeful, and responsible participation in social processes. The article offers a comparative analysis of classical and contemporary socio-philosophical concepts and identifies new forms and manifestations of social activity emerging under conditions of global change. The findings contribute to a deeper understanding of social activity as a significant indicator of the interaction between the individual and society.

Keywords: social activity, global processes, transformation, individual, society, social philosophy, social consciousness.

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi global jarayonlarning tobora kuchayib borishi bilan tavsiflanadi. Globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi, iqtisodiy va madaniy integratsiyaning chuqurlashuvi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, shaxsning ijtimoiy faolligini namoyon etish mazmuni va shakllariga fundamental ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda ijtimoiy faollik endilikda faqat ijtimoiy muhitga moslashish va belgilangan ijtimoiy rollarni bajarish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning jamiyatdagi o'zgarishlarga ongli, maqsadga muvofiq va mas'uliyatli munosabatini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda [9; 7–8].

Global jarayonlar sharoitida ijtimoiy faollikning mazmuni va shakllari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Raqamli makon, ijtimoiy tarmoqlar, transmilliy kommunikatsiyalar va global muammolar shaxs ijtimoiy faolligining yangi ko'rinishlarini yuzaga keltirmoqda [2; 45–47]. Fuqarolik faolligi, ijtimoiy tashabbuslar, volontyorlik hamda virtual hamjamiyatlarda ishtirok etish kabi faoliyat turlari ijtimoiy faollikning an'anaviy shakllaridan farqli ravishda yangi transformatsion xususiyatlarga ega bo'lmoqda. Shu sababli global jarayonlar sharoitida ijtimoiy faollikning transformatsion talqini ijtimoiy falsafa uchun muhim nazariy-metodologik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy faollik tushunchasi va uning global jarayonlar sharoitidagi transformatsiyasi ijtimoiy falsafa hamda sotsiologiya fanlarida keng o'rganilmoqda. Ijtimoiy falsafada ijtimoiy faollik masalasi tarixan turli yondashuvlar doirasida talqin qilingan. Klassik falsafada jamiyat va shaxs munosabatlari asosan ijtimoiy tartib, me'yorlar va iyerarxiyaga moslashish nuqtai nazaridan izohlanadi. Masalan, Aristotel insonni "ijtimoiy mavjudot" sifatida qarab, uning faolligini polis hayotida ishtirok etishi orqali namoyon bo'ladigan tabiiy holat sifatida tushuntirgan [6; 78–80]. Yangi davr falsafasida T. Gobbs asarlarida ijtimoiy faollik ijtimoiy shartnoma va fuqarolik majburiyatlari bilan bog'liq holda talqin etilgan [8; 120–125]. Nemis klassik falsafasida, ayniqsa, G. Gegel ta'limotida ijtimoiy faollik tarixiy hodisa sifatida qaraladi. Bu hodisa shaxsning obyektiv ruh va ijtimoiy institutlar bilan o'zaro ta'siri jarayonida shakllanadi [7; 200–205]. K. Marks va F. Engels konsepsiyasida ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat amaliyotidagi ishtiroki, ishlab chiqarish munosabatlari hamda sinfiy kurash bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi [11; 150–155]. Ushbu yondashuvlar ijtimoiy faollikning tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tushinishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafada ijtimoiy faollik tushunchasi mazmun jihatidan kengaytirilib, shaxsning subyektiv pozitsiyasi, mas'uliyati va ijodiy tashabbusi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. M. Veber ijtimoiy faollikni mazmunli ijtimoiy harakat sifatida izohlab, shaxs faoliyatida ongli motivlarning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [4; 50–55]. Ijtimoiy faollikni transformatsion hodisa sifatida o'rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, M. Kastells global axborot jamiyati va raqamli kommunikatsiyalar sharoitida shaxs ijtimoiy faolligining yangi ko'rinishlarini o'rganadi [2; 210–215]. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn hamjamiyatlar shaxsning ijtimoiy faolligini kengaytirib, uni global miqyosdagi ijtimoiy o'zgarishlar jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Shuningdek, B. Wellmanning tadqiqotlari ham individning ijtimoiy tarmoqlardagi ishtiroki bilan jamoaviy ijtimoiy faollik o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi [5; 78–82].

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy faollikning mazmuni klassik va zamonaviy nazariy yondashuvlarda sezilarli darajada farqlanadi. Klassik qarashlarda ijtimoiy faollik ko'proq jamiyat barqarorligini ta'minlovchi omil sifatida baholansa, zamonaviy yondashuvlarda u transformatsion hodisa, ya'ni jamiyatdagi o'zgarishlarning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etiladi [13; 45–48]. Bu tafovutlar global jarayonlar sharoitida shaxs ijtimoiy faolligini yangi konseptual asoslar doirasida o'rganishni taqozo etadi. Demak, mavjud ilmiy adabiyotlar global kontekstda ijtimoiy faollikni yanada chuqurroq va tizimli tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Metodologiya. Global jarayonlar sharoitida ijtimoiy faollikni harakatsiz hodisa sifatida emas, balki dinamik, uzluksiz o'zgarish va rivojlanish jarayonida mavjud bo'ladigan ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida o'rganish ayniqsa muhimdir. Chunki bu orqali global o'zgarishlar ta'sirida yuzaga kelayotgan ijtimoiy faollikning yangi mazmuniy jihatlari tahlil qilindi [10; 19–20]. Shuningdek, tarixiylik va mantiqiylik birligi tamoyili orqali ijtimoiy faollik tushunchasining qadimgi falsafiy qarashlardan hozirgi zamon ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalarigacha bo'lgan rivojlanishi o'rganildi. Xususan, klassik falsafadagi ijtimoiy faollik talqini bilan zamonaviy global jarayonlar kontekstidagi yondashuvlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar aniqlandi.

Ijtimoiy faollikni shaxs, jamiyat, ijtimoiy institutlar va global jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqishda tizimli yondashuv usuli xizmat qildi. Ijtimoiy faollikning jamiyat ijtimoiy tuzilishidagi o'rni, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga ta'siri tizimli tahlil orqali aniqlandi [3; 100–105].

Ushbu metod va usullar yordamida ijtimoiy faollikning empirik ko‘rinishlaridan nazariy xulosalar chiqarildi hamda global jarayonlar sharoitida uning transformatsion jihatlarini tahlil qilindi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar majmui global jarayonlar sharoitida ijtimoiy faollik transformatsiyasini har tomonlama, tizimli va chuqur ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan ijtimoiy-falsafiy tahlil natijasida global jarayonlar sharoitida ijtimoiy faollik tushunchasining mazmuni va funksional xususiyatlarida muhim o‘zgarishlar yuz berayotgani aniqlandi. Bu natijalar ijtimoiy faollikni an’anaviy tushunchalarga nisbatan yangi sifat darajasida tahlil qilish imkonini beradi. Global jarayonlar sharoitida ijtimoiy faollik endilikda insonning jamiyatga passiv munosabati emas, balki uning ijtimoiy o‘zgarishlarda ongli, maqsadli va mas’uliyatli ishtiroki sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi [4; 60–62]. Ijtimoiy faollik shaxsning subyektiv pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u jamiyatdagi muammolarga munosabat bildirish va ularni hal etishda faol ishtirok etish orqali ifodalanadi [14; 139]. Bu holat ijtimoiy faollik mazmunining chuqurlashganini va uning ijtimoiy ahamiyati ortganini anglatadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy faollik shakllarining xilma-xilligi ortgani aniqlandi. Global axborot makoni va raqamli aloqa vositalari ta’sirida ijtimoiy faollikning an’anaviy (mehnat, siyosiy, jamoatchilik) shakllari bilan bir qatorda yangi — raqamli, virtual va transmilliy shakllari ham vujudga kelgan [2; 300–305]. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va virtual hamjamiyatlar inson ijtimoiy faolligining yangi bosqichini shakllantirib, uning makon va zamon bilan cheklanmasligini namoyon etmoqda [5; 120–125].

Uchinchidan, shuni alohida ta’kidlash joizki, global jarayonlar ijtimoiy faollikning subyektiv doirasini kengaytirdi. Agar an’anaviy jamiyatda ijtimoiy faollik ko‘proq muayyan ijtimoiy guruhlar yoki institutlar faoliyati bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi sharoitda har bir inson global ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanish imkoniyatiga ega [3; 250–255]. Bu holat insonning ijtimoiy subyekt sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi va ijtimoiy faollikni bir vaqtning o‘zida ham individual, ham global hodisa sifatida namoyon etadi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari ijtimoiy faollikning funksional jihatdan ham o‘zgarishga uchrayotganini ko‘rsatdi. Global jarayonlar sharoitida ijtimoiy faollik nafaqat jamiyat barqarorligini ta’minlovchi omil, balki ijtimoiy yangiliklar, tashabbuslar va o‘zgarishlarning muhim manbai sifatida ham xizmat qilmoqda [13; 50–52]. Demak, ijtimoiy faollik jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi faol kuchga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari global jarayonlar sharoitida ijtimoiy faollik mazmunan boyib, shaklan murakkablashib va funksional jihatdan kengayib borayotganini ko‘rsatdi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari global jarayonlar sharoitida ijtimoiy faollik tushunchasining mazmuni va funksional mohiyati sezilarli darajada o‘zgarib borayotganligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda aniqlangan ijtimoiy faollikning ongli va maqsadli xarakteri M. Veberning ijtimoiy harakatlar nazariyasiga metodologik jihatdan mos keladi. M. Veber ijtimoiy harakatni subyekt tomonidan anglangan ma’noga asoslangan faoliyat deb qaraydi [4; 25–27]. Bu yondashuvda ijtimoiy faollik ijtimoiy ong darajasi, qadriyatlar va shaxs motivlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi tasdiqlanadi. Global jarayonlar ushbu omillarning ahamiyatini oshirib, ijtimoiy faollikni shaxsning ichki pozitsiyasi bilan chambarchas bog‘liq hodisaga aylantirmoqda.

Natijalarda aniqlangan ijtimoiy faollik shakllarining xilma-xilligiga E. Giddensning strukturatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan ham izoh berish mumkin. Giddensning fikricha, ijtimoiy tuzilmalar va shaxslarning harakatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, inson ijtimoiy harakatlar orqali mavjud tuzilmalarni qayta tiklaydi yoki o‘zgartirib boradi [3; 150–155]. Global axborot makoni va raqamli kommunikatsiyalar sharoitida ijtimoiy tuzilmalar yanada ochiq va o‘zgaruvchan bo‘lib, ijtimoiy faollikning yangi — virtual va transmilliy shakllarini yuzaga keltirmoqda [2; 400–405]. Tadqiqot natijalari ushbu nazariy qarashlarni tasdiqlaydi hamda ijtimoiy faollik hozirgi jamiyatda tarkibiy o‘zgarishlarning muhim omiliga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy faollikning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri nafaqat barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanmay, balki ijtimoiy yangiliklar va o‘zgarishlar manbaiga aylanishi haqidagi xulosa T. Parsonsning funksionalizm nazariyasidan ma’lum darajada farq qiladi. T. Parsons ijtimoiy faollikni tizim barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida qaragan bo‘lsa [13; 70–72], global jarayonlar sharoitida ijtimoiy faollik nafaqat qo‘llab-quvvatlovchi, balki tizimni o‘zgartiruvchi kuch sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Bu holat ijtimoiy faollikning funksional rolida sifat jihatidan yangi bosqich boshlanayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari global jarayonlar ijtimoiy faollik mazmunini chuqurlashtirib,

uni inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning markaziy mexanizmlaridan biriga aylantirayotganini ko'rsatmoqda.

Xulosa. Ijtimoiy faollik turlarining ko'p qirraliligi. Global axborot makoni, raqamli kommunikatsiyalar va milliy chegaralarni tan olmaydigan ijtimoiy jarayonlar insonning ijtimoiy faolligini an'anaviy shakllardan virtual va global ko'rinishlargacha kengaytirdi.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy faollikni insonning ijtimoiy ong darajasi, kommunikativ imkoniyatlari hamda global jarayonlar ta'sirida shakllanuvchi faol subyekt sifatidagi mohiyatini tushuntirish imkonini berdi. Natijada ijtimoiy faollik global jarayonlar sharoitida transformatsion hodisa sifatida qayta ko'rib chiqildi va ijtimoiy-falsafiy tushunchalar doirasida yangicha talqin qilindi. Tadqiqot ijtimoiy faollikni inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning markaziy mexanizmi sifatida namoyon etib, uning nazariy-metodologik tahlilini yanada chuqurlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.K.Berdimuratova. *Filosofiya*. No'kis "Qaraqalpaqstan" baspasi, 2010-jil.
2. Castells A. *Global axborot jamiyati*. – M.: Progress, 2000. – 512 b.
3. Giddens E. *Jamiyatning tuzilishi*. – M.: Akademicheskii proekt, 2005. – 528 b.
4. Veber M. *Ijtimoiy harakat nazariyasi*. – M.: Progress, 1990. – 432 b.
5. Wellman B., et al. *Networked Individualism: Global Patterns of Digital Interaction*. – Cambridge: MIT Press, 2001. – 496 p.
6. Аристотел. *Политика*. – М.: Мысл, 1984. – 456 с.
7. Гегел Г.В.Ф. *Философия права*. – М.: Мысл, 1990. – 524 с.
8. Гоббс Т. *Левиафан*. – М.: Мысл, 1991. – 512 с.
9. Дмитрук Л.М. *Социальная активность производственного коллектива: истоки, формы, тенденции*. Минск, 1987. С.7-8; Цыбульская. *Социальная активность как конструктивность векова образы жизни студенческой молодежи // Весці ВДПУ. Серія 2. 2013, №3, 34-б.*
- 10.Каган М.С. *Человеческая деятельность. Опыт системного исследования*. М., 1984. с.19.
- 11.Маркс К., Энгелс Ф. *Немецкая идеология*. – М.: Политиздат, 1988. – 480 с.
- 12.Мяловицкий. *Социальная активность женщин и воспитание детей в семье // Социально-этические проблемы семьи и семейного воспитания*. Горький, 1992.
- 13.Парсонс Т. *Социальная система*. – М.: Академический проект, 2000. – 528 с.
- 14.Шибанов В.К. *Влияние некоторых факторов на развитие общественно-политической активности личности // Социологические исследования работы общественных организации*. М., 1992, с.139.